

CLASSIFICATION OF POLITICAL EDUCATION

Otayev Akram Yuldashevich

TVCHDPI "General pedagogy" teacher of the department

Tel: +998 (90) 515 92 02, a.utayev@cspi.uz

Resume:

The article discusses the theoretical and pedagogical analysis of modern tasks in the educational process, the results and effectiveness, the structure of the goal and the importance of political education in the upbringing of a harmoniously developed generation, its specific laws, principles and methods, as well as classification.

Keywords: harmonious generation, political education, pedagogical education, personality education, education system, national education, physical education, mental education, spiritual education, spiritual education, self-education.

KIRISH (INTRODUCTION)

Barkamol avlodni shakllantirishda ta'lim bilan bir qatorda tarbiya masalasiga e'tibor ham jiddiy mazmun kasb etadi. Pedagogikada ta'lim bilan tarbiyada o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik va uyg'unlik bo'lishi lozimligi barkamol shaxsni shakllantirish jarayonining to'laqonli va mukammal bo'lishini ta'minlaydi. O'quv muassasalarida ta'lim bilan bir qatorda tarbiya masalasiga ham ustuvorlik berilishini ushbu omil bilan izohlash mumkin. Zero, "Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi"[1].

Ta'lim va tarbiya yagona jarayon sifatida qaralsa-da, ammo tarbiyaning ta'limdan farqli ravishda o'ziga xos qonuniyatlari, tamoyillari va usullari mavjud. Ta'lim jamiyat ravnaqi va insonlar farovonligini ta'minlashga, tarbiya esa uni buzilib ketishdan asrashga xizmat qiladi. Shaxs tarbiyasini muayyan tizim deb qarash mumkin. Mazkur tizimda o'ziga xos qonuniyatlar, tamoyillar, usullar, turlar, shakllar mavjudki, ularni o'zaro farqlash tarbiyani o'rganish va tadqiq etishda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, tarbiyaning quyidagi turlari mavjud: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, siyosiy tarbiya, diniy tarbiya, ekologik tarbiya va hokazo.

Tarbiya tizimida mazkur tur va shakllar o'zining muayyan xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda ularning mazmun-mohiyati yoritilgan. Ammo shuni ta'kidlash o'rinliki, tadqiqotchilar tomonidan siyosiy tarbiyaning ko'p omilli tasnifi yetarlicha amalga oshirilmagan, siyosiy tarbiya metodikasi muayyan tizimga solinmagan.

Tarbiyani pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida quyidagicha tasnif qilish maqsadga muvofiq.

1. Ob'ektiga ko'ra: tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash.
2. Sub'ektiga ko'ra: oila tarbiyasi, ta'lim muassasasi tarbiyasi, jamoa tarbiyasi, muhit tarbiyasi.
3. Sohasiga ko'ra: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, siyosiy tarbiya, diniy tarbiya, ekologik tarbiya.
4. Ob'ekt mazmuniga ko'ra: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, ma'naviy tarbiya, ruhiy tarbiya.
5. Maqsadiga ko'ra: ongli tarbiya, ixtiyorsiz tarbiya.
6. Darjasiga ko'ra: milliy (sharqona) tarbiya, umuminsoniy tarbiya.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Tarbiya jarayoniga qo'yilayotgan zamonaviy vazifalarining nazariy-pedagogik tahlili, natija va samaradorligi, qo'yilgan maqsadning tizimligi g'am muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, tarbiyaning asosiy kategoriyalari:

Ob'ektiga ko'ra. Adabiyotlarda "tarbiyalash", "o'z-o'zini tarbiyalash" va "qayta tarbiyalash" tushunchalari farqlanadi [2]. Buni tarbiyaning yo'naltirilgan ob'ektga ko'ra farqlanishi deyish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan olib qaralganda, tarbiyalash barcha insonlarga, o'z-o'zini tarbiyalash esa insonning o'ziga va qayta tarbiyalash esa muayyan shaxsda shakllangan tarbiya ustida qayta ishlashni nazarda tutadi.

Sub'ektiga ko'ra. Oiladagi tarbiya ota-onalarning o'z farzandlarini muayyan maqsadga muvofiq shakllantirishidir. Oiladagi tarbiyada o'rnak va namuna ko'rsatish muhim o'rin tutadi. Ta'lim muassasasining tarbiyasi o'quvchilarda o'qish va o'rganish, jamoada o'zini tutish, muloqot madaniyati bilan bog'liq shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga qaratiladi. Jamoa tarbiyasi maqsadiga ko'ra ixtiyorsiz tarbiya shakli bo'lib, muayyan jamoada shakllangan an'ana va qadriyatlar, odatlar shaxsga ta'siri natijasida shakllanadi. Muhit tarbiyasi ham ixtiyorsiz tarbiya shakli bo'lib, jamoa tarbiyasining keyingi bosqichi deyish mumkin. Bu tarbiya shakli jamoada shakllangan umumiy muhit orqali o'zlashtirilgan tarbiya elementlaridan tarkib topadi.

Sohasiga ko'ra. Odatda, tarbiya turlari haqida gapirilganda, uning sohalar bo'yicha turlari nazarda tutiladi. Bu borada sohaga tegishli adabiyotlarda ma'lumotlar yetarli darajada mavjud [2,3].

Ob'ekt mazmuniga ko'ra. Ob'ektning qanday shaxsiy sifatlarini shakllantirishiga ko'ra jismoniy, aqliy yoki ma'naviy tarbiyalar farqlanadi. Jismoniy tarbiya shaxsning jismoniy imkoniyatlari, aqliy tarbiya uning intellekti, ma'naviy tarbiya esa madaniy va axloq-odob bilan bog'liq, ruhiy tarbiya esa shaxsning ruhiy holati bilan bog'liq sifatlarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Maqsadiga ko'ra. Ongli tarbiya insonlar tomonidan e'tirof etilgan tarbiyaviy sifatlarning shaxs tomonidan ongli ravishda maqsadli o'zlashtirilishidir. Ixtiyorsiz tarbiya esa shaxs mansub jamoa yoki muhit ta'sirida shu jamoa yoki muhitdagi qadriyat, an'ana va odatlarning o'zlashtirilishi natijasida sodir bo'ladi.

Darajasiga ko'ra. Tarbiya o'zining qamrov darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Milliy tarbiya muayyan millatga xos milliy xususiyatlar, qadriyatlarni, urf-odat va an'analar, axloq-odob me'yorlariga asoslangan, shaxsda vatanparvarlik, millatparvarlik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiya shaklidir.

Umuminsoniy tarbiya esa umumbashariyatga xos bo'lgan qadriyatlarga nisbatan hurmatga asoslanadi va shaxsda insonparvarlik, tenglik, adolat kabi sifatlarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tarbiya pedagogikaning umummetodologik xarakterga ega kategoriyasi hisoblanadi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda uning yuqoridagi tur va shakllari kompleks ravishda rivojlantirilishi zarur.

Tarbiya rivoji umumiy rivojlanishni taqozo qiladi, ya'ni muayyan shaxsda tarbiyaning muayyan turlari yuqori darajada va muayyan turlari past darajada bo'lishi mumkin emas. Chunki tarbiya shaxsning jinsiy, irsiy, intellektual va ma'aniy omillariga bog'liq bo'lib, shaxs tarbiyasi o'sha omillarning darajasiga proporsional ravishda shakllanadi. Bu esa tarbiyaning o'zaro ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, oila tarbiyasi bilan ma'naviy tarbiyaning, diniy tarbiya bilan axloqiy tarbiyaning yoki jismoniy tarbiya bilan ruhiy tarbiyaning o'zaro bir-biriga o'tishi, bog'liqligi va uzviyligini shu bilan izohlash mumkin.

Tarbiya tizimida uning ayrim turlari, xususan, jismoniy tarbiya, oiladagi tarbiya, muhit va jamoa tarbiyasi, milliy (sharqona) tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya va boshqalar atroflicha o'rganilgan. Ularda muayyan tarbiyaning tur sifatidagi shakl va mazmuni, uni qaror toptirishning usul va yo'llari, metodologik asosi va uning tarbiya tizimidagi o'rni kabi masalalar yoritilgan.

Sohalar bo'yicha tarbiya turlaridan biri bo'lgan siyosiy tarbiya pedagogikamizda atroflicha o'rganilmagan. Sh.Yo'ldashev, R.Jo'raev, N. Azixzodjaeva, Sh.Abdullaeva, Sh.Mardonov, O.Musurjonova, U.Maxkamov, N.Shodmanova, S.Tun-g'unov, M.Usmonboeva, N.Usmonov kabi pedagog olimlar, M.Xayrullaev, E.Yusupov, J.Tulenov, S.Shermuhammedov, A.Erkaev, T.Mahmudov kabi faylasuf olimlarning tadqiqotlarida shaxsni har tomonlama shakllantirish masalasi doirasida siyosiy tarbiya borasida ham ayrim fikrlar bayon qilib o'tilgan. Xorijda esa V.P.Bespalko, I.Ya.Lerner, B.T.Lixachyov, S.R.Volkova, B.L.Farberman, A.K.Markova, Yu.M.Bundina, I.B.Torshina, Russell Bertrand, A.Carlsson, K.Rodgers, C.Shleti kabi olimlarning tadqiqotlarida siyosiy tarbiya masalasi shaxsning aqliy va ma'naviy sifatlarini shakllantirishning elementi sifatida qayd etilgan.

Navoiyning siyosiy qarashlari negizini insonning o'zini anglash g'oyasi tashkil qilishiga duch kelamiz. Unga ko'ra, inson ta'lim va tarbiya vositasida o'zini anglab yetadi. "O'zni anglash" deganda Navoiy quyidagi 3 narsani nazarda tutadi:

- 1) bilim olish;
- 2) aqlni o'stirish;
- 3) axloqli bo'lish[4].

Behbudiy milliy pedagogikamizning o'zbek "Jadid pedagogikasi" fanida birinchi bo'lib yosh avlodning siyosiy tarbiya omillarini belgilab bergan edi[5].

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Siyosiy tarbiya, uning siyosiy madaniyat bilan aloqasi, shakl va mazmuni, ta'rifi, tavsifi va tasnifiy belgilari, tarbiya tizimida uning ahamiyati, xususan, umumta'lim maktab o'quvchilarida siyosiy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi va zarurati kabi masalalar monografik asosda o'rganilmagan.

Umuman, ushbu tasnif muayyan darajada shartli bo'lib, unda tarbiya metodiga xos bo'lgan asosiy mezonlar, yo'naltirilganligi, maqsadi, ob'ekt va sub'ekt munosabati kabi jihatlar inobatga olingan. Tarbiyaning ushbu turlari va uni shaxs shakllanishidagi amaliy ijrosi bilan bog'liq metodlar, usullar va vositalar birgalikda tarbiya tizimini tashkil qiladi.

Shaxsni siyosiy tarbiyani amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

1. Zamonaviy jamiyatning ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib, yosh avlodni siyosiy daxldorlik ruhida tarbiyalaydi;
2. Shaxsni o'z davrining me'yorlari va qoidalari asosida siyosiy ijtimoiylashtiradi
3. Jamiyatda tarkib topayotgan yangi siyosiy strategik yo'nalishlarga shaxsni moslashtiradi (adaptatsiya);

4. Shaxsda barqaror siyosiy bilim, ko'nikma va malakani shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION /RECOMMENDATIONS)

Yurtimizda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etish sharoitida yangi avlod kadrlarining siyosiy ongli, siyosiy axloqli va siyosiy faol bo'lishlariga ehtiyoj nisbatan ortdi. Siyosiy ong, siyosiy axloq va siyosiy faollik kasbiy kompetentsiya shakllaridan biri sifatida shaxsning ijtimoiy ong darajasini belgilovchi sifatlar sirasiga kiradi. Mazkur kompetentsiyalar yangi avlod kadrlarining islohotlar jarayonida o'z g'oyalari va faoliyati bilan ishtirok etish imkoniyatini oshiradi. Zamonaviy umumta'lim maktablarida o'quvchilarga keng ko'lamli va har tomonlama bilimlar majmui berib kelinmoqda. Ular orasida, albatta, o'quvchilarning siyosiy madaniyat va siyosiy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Zero, yoshlarda siyosiy madaniyat va siyosiy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirishda tarbiya tasniflarini pedagogik tahlil qilish orqali amalga oshirish ijobiy samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 1059-sonli Qarori.
2. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. Respublika oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlarining talabalari, pedagogika litseylari va kollejlarning o'quvchilari uchun darslik. –T.: "O'qituvchi", 2001. b307.
3. Karimova V.M., Akramova F.A., Ochilova G.O., Musaxanova G.M. Pedagogika. Psixologiya. O'quv qo'llanma. –T.: 2011.
4. O'tayev A. Bo'lajak pedagog kadrlarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy meroslar bilan tanishtirishning ahamiyati. "Xalq talimi" jurnali. № 3. 2020 yil. 107-111bet.
5. O'tayev A. Alisher Navoiyning siyosiy qarashlariga doir. Uslubiy qo'llanma. Chirchiq. 2020.
6. O'tayev A., Eshmanova N. Behbudiyning siyosiy tarbiya to'g'risidagi qarashlari. "Maktab va hayot" jurnali maxsus son. 2020. 23-26bet.
7. O'tayev A. Boshlang'ich ta'limda siyosiy tarbiyani amalga oshirish innovatsiyasi. "Uzluksiz talim" jurnali ilmiy – uslubiy jurnal maxsus son. 2020 yil. 17-20 bet
8. O'tayev A. Zamonaviy ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining siyosiy tarbiyasi. Science and Education Volume 1, Special Issue 4, December 2020. 135-143bet.